

**SIRTQI (MAXSUS SIRTQI) BO'LIM TALABALARINING SESSIYA ORALIG'I
VAZIFALARI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH (chizma geometriya fani misolida)**

A.N.Valiyev – *katta o'qituvchi, dotsent*

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

X.Q.Amirqulov – *o'qituvchi*

Toshkent shahar, TIQXMI

B.Esbog'anova – *katta o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: maxsus sirtqi, semester, sessiya oralig'i vazifasi, kompleks, bilim, baho, grafik masala, grafik savodxonlik, grafik ish, idrok, tafakkur, xayol, tasavvur, test, mashq va masala, sirt, ko'pyoqlik, mustaqil ish, ijodiy ish, elektron platforma, chizma geometriya.

Ключевые слова: специальное заочное, семестр, задания промежуточного контроля, комплекс, знания, оценка, графические задачи, графическая грамотность, графическая работа, сознание, мышление, мысль, представление, тест, упражнение и задание, поверхность, многосторонник, самостоятельная работа, творческая работа, электронная платформа, начертательная геометрия.

Key words: extra mural students, term, tasks of continuous assessment complex, knowledge, assessment, graphic tasks, graphic literacy, graphic work, graphic task, consciousness, thinking, thought, special extra mural courses, imagination, test, exercise and task, surface, multilateral, independent work, creative work, electronic platform, descriptive geometry.

Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarining maktabgacha, boshlang'ich, musiqa, tasviriy san'at, chet tillari, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya yo'nalishlari va boshqa fanlar bo'yicha oliy ma'lumotli pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylardagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda ularni tayyorlash tizimini joylarda tashkil etishni yanada takomillashtirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 9- avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3183-sonli qarori qabul qilindi [1].

Mazkur qarorning ijrosi sifatida pedagogika oliy o'quv yurtlarida oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash maqsadida ko'plab ta'lim yo'nalishlarida sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limga talabalar qabul qilindi. Shu jumladan pedagogika oliy o'quv yurtlarida ko'plab ta'lim yo'nalishlari qatori 5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limga talabalar o'qishga qabul qilindi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti maxsus sirtqi bo'lim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlari hamda o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarni yaratish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi etib belgilandi va uning huzurida pedagogika yo'nalishlari bo'yicha maxsus sirtqi bo'limlar tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalarining o'quv-metodik faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi umumta'lim maktablari, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining yuqori malakali pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bilan bir qatorda pedagogik faoliyat olib boravotgan o'rta maxsus ma'lumotli yoshlarning oliy ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu, o'z navbatida, pedagogik kasbining jamiatdagi o'rni va nufuzini oshirish, jumladan yoshlarni tizimli asosda o'qituvchilik kasbiga yo'naltirishga xizmat qilmoqda [1].

Sirtqi (sirtqi) ta'lim turida tahsil olayotgan talabalarining o'ziga xos tomoni ular fan bo'yicha materiallarni asosan masofadan turib mustaqil ravishda o'zlashtiradi. Ularning fanni qay darajada o'zlashtirganini bilish, baholash va bilimni mustahkamlash uchun *sessiya oralig'i vazifalari* deb nomlanuvchi topshiriqlar to'plami turi qabul qilingan. Bunda talaba semestrlar (sessiya) oralig'ida har bir fan yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarining darajasini ko'rsatib beruvchi vazifalar bajaradi va ularni ma'ruzachi professor-o'qituvchiga topshiradi. Har bir fandan talabaga individual tarzda vazifa variantlari, adabiyotlar manbai va metodik ko'rsatmalar avvaldan beriladi.

Dastlab, oliy ta'limdagi semestr va sessiya tushunchasi

nima ekanligini tahlil qilib olaylik. Bizga ma'lumki, OTMLarida har bir o'quv yili ikkita semestrga ajratilgan. Talabalar har bir semestr davomida o'qib-o'zlashtirgan fanlaridan yakuniy nazorat topshiradi va baholanadi. Mana shu jarayon sessiya deb yuritiladi. MSBda esa aynan "*sessiya oralig'i vazifalari*" jumlasidan foydalaniladi. Ya'ni ikki semestr oralig'idagi muddat davomida har bir fandan berilgan topshiriqlarning yechimlarini aniqlaydi va mas'ul professor-o'qituvchiga semestrda o'qishlar boshlanguncha elektron tarzda yuboradi (yoki belgilangan tartibda topshiradi).

Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limning o'quvi jarayonida talabaning sessiya oraliq vazifalari mazmuni, uni bajarish tartiblari to'g'risida har bir fan bo'yicha tayyorlangan fan ishchi dasturida ma'lumot beriladi. Sessiya oralig'i vazifalari mazmuni fanning ishchi dasturida aks etgan barcha mavzularga oid materiallarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Talabaga professor-o'qituvchi tomonidan maslahat, metodik tavsiyalar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati va boshqa metodik yordamlar berilishi kerak. Shunday didaktik ta'minot asosida har bir talaba mustaqil ravishda sessiya oralig'i vazifalarini bajaradi.

Sessiya oraliq vazifalari mazmunidan quyidagi mustaqil ish turlari o'rin oladi: *ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash; hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish; maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash; amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash; ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash; amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash; test-sinov savollariga javob berish; mashqlar, misol va masalalar yechish; tajriba natijalarini tahlil qilish; metodik ishlanmalar, tavsiyanomalar tayyorlash; grafik ishlar chizish; uy vazifalarini bajarish va boshqalar* [1].

Sessiya oraliq vazifalarni bajarganidan so'ng talaba uni tegishli kafedrada qayddan o'tkazadi va u mutaxassislar tomonidan tekshirilib tegishli tartibda baholanadi. Talabalar bilimni tekshirish va baholashdan maqsad DTSda belgilangan talablarni bajarish, ular bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta'minlash, ularni rag'batlantirish, bilim olishga qiziqishi va mas'uliyatini oshirishdan iborat.

Hozirgi kunda maxsus sirtqi bo'limda tahsil olayotgan talabalarga barcha fanlardan elektron platformalar tayyorlandi va uzluksiz takomillashtirib borilmoqda. Mazkur elektron platformadan fan dasturlari, har bir ma'ruzaning videotasviri, taqdimoti, sessiya oralig'i topshiriqlarining mazmuni, uni bajarishga oid metodik tavsiyanomalar, har bir talaba uchun individual variantlar banki o'rin olgan. Ammo bu materiallarni to'laqonli darajada sifatli deyishga va elektron platformadan talaba va professor-o'qituvchi talab darajasida foydalmoqda deb xulosa qilishga hali erta.

Nizomiy nomidagi TDPuning sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limida tahsil olayotgan talaba elektron platformadan foydalanish uchun dastlab, www.tdpu.uz saytidan ilova

qilingan talaba.tdpu.uz manzili orqali shaxsiy kabinetiga login va paroli yordamida kiradi. Keyin fanning elektron platformasidan foydalanadi va sessiya oralig'i vazifalarining variantlarini yuklab oladi. Talaba vazifani bajarib bo'lgach uni platformadagi maxsus – "*bajarilgan vazifani yuklash*" bandiga joylashtiradi. So'ngra fan o'qituvchisi www.tdpu.uz saytidagi shaxsiy rejasiga kiradi va talabani bajargan ishlarini tekshiradi hamda uni baholaydi. Talaba yo'l qo'ygan kamchilik va xatoliklarni yoki yutuqlarni unga yetkazish uchun o'qituvchi va talaba o'rtasida qaytadan virtual (masofaviy) aloqa o'rnatiladi. Natijada o'qituvchining talabaga qo'ygan bahosi va ko'rsatgan kamchiliklarini talaba www.tdpu.uz saytida aks etadi.

Bizning tadqiqotimizda chizma geometriya fani bo'yicha sessiya oralig'i vazifalari mazmunini kompleks yondashuv asosida takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Kompleks - lotincha so'zdan olingan bo'lib, aloqa, bog'lanish, qo'shib qamrab olish ma'nosini beradi. Ya'ni bir butunni tashkil qiluvchi narsalar, hodisalar, belgi-xususiyatlar majmui, yig'indisidir [1]. Yoki chizmachilik faniga oid o'quv adabiyotlarida kompleks termini quyidagicha talqin qilinadi: kompleks – ikki va undan ortiq ixtisoslashtirilgan buyumlar tayyorlovchi korxonada yig'ish vositasi bilan birlashtirilmagan, ammo o'zaro bir-biriga bog'liq ekspluatatsion vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan buyumdur [2]. Yuqorida kompleks terminining mazmunini badiiy va texnika tili nuqtayi nazaridan ko'rganimizda ham yaxlit bir butunning tarkibidagi qismlar majmui ekanligini ko'rdik. Endi buni pedagogika, aniqrog'i didaktikaga moslashtirsak, talabani fanni sifatli o'zlashtirishi uchun amalga oshiriladigan o'qitish, bilimni mustahkamlash, tekshirish va baholash kabi pedagogik jarayonlar bir butunning qismlari deb qarashimiz mumkin.

Chizma geometriya fani 5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining MSB o'quv rejasida mutaxassislik fani sifatida o'rin olgan. Kunduzgi bo'limda mazkur fanga jami 246 soat (shundan, 56 soat ma'ruza, 86 soat amaliy mashg'ulot va 104 soat mustaqil ta'lim) ajratilgan. Shu ta'lim yo'nalishining MSBda 246 soat (shundan, 20 soat ma'ruza, 20 soat amaliy mashg'ulot va 206 soat mustaqil ta'lim) ajratilgan. Sirtqi bo'limda esa 254 soat (shundan, 24 soat ma'ruza, 48 soat amaliy mashg'ulot va 182 soat mustaqil ta'lim) ajratilgan [2]. Ko'rinib turibdiki, kunduzgi bo'limda auditoriya va mustaqil ta'limdagi soatlar nisbati 68%:32%, sirtqi (maxsus sirtqi)da esa 16%:84% nisbatda. Demak, sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limda tahsil olayotgan talaba har bir fan bo'yicha o'zi mustaqil tarzda o'quv adabiyotlari ustida ishlashi, o'zlashtirishi va berilgan vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi.

Chizma geometriya fanida uch o'lchamli fazoda joylashgan buyumlarning ikki o'lchamli tekislik voki sirt ustida tasvirlash usullari tadqiq qilinadi. Shuningdek, unda geometrik shakl va sirtlarning chizmalarini tuzish va uni o'qishning nazariv qoidalari o'rganiladi. Ta'lim yo'nalishining DTSda bo'lajak chizmachilik o'qituvchisi bu fandan o'zlashtirishi shart bo'lgan talablarda mustaqil tarzda geometrik shakllar va sirtlarning ortogonal, aksonometrik va markaziy proveksiyalarini qura olishi, geometrik shakllar va sirtlar orasidagi pozitsion, metrik munosabatlarni tekshira olishi va gravik savodxonlikni egallashi belgilab qo'yilgan.

Grafik savodxonlikka ega bo'lgan inson har qanday chizmani bajara oladi va uni o'qiy biladi. Shu sababli chizma geometriya va chizmachilik fanlarining o'ziga xos

xususiyatidan kelib chiqib sessiya oralig'i vazifalari mazmuni grafik ish bajarishdan, ya'ni chizma chizib topshirishdan iborat bo'ladi. Chizma geometriya fani 1 va 2-semstrlarda o'qitiladi va 2 semestr davomida talaba 11 ta grafik topshiriqni bajaradi. Talabani egallagan bilimi uning mustaqil bajargan grafik ishlarini tekshirish va baholash orqali aniqlanadi.

Shu o'rinda talaba bilimini tekshirish va baholashdan ko'zlangan maqsadni to'g'ri belgilash va uni yo'lga qo'yish lozim. Bilimni tekshirish va uni baholashning o'z yutuqlari bilan quyidagi kamchiliklari ham mavjud: *uning vazifalari (funktsiyalari)ni noto'g'ri tushunish; ta'lim jarayonida uning rolini asossiz ko'tarib yuborish; tekshirish va baholashning darsda asosiy maqsadga aylanib qolishi; bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyadan foydalanish; baholarni qo'yishda subyektivizmga yo'l qo'yish va aniq, asoslangan mezonlarning yo'qligi; o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashda bu jarayonni nazorat qiluvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi muhim funktsiyani bajarishni unutmashlik kerak* [3].

Yuqorida qayd etilgan "*bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyadan foydalanish*", "*baholarni qo'yishda subyektivizmga yo'l qo'yish va aniq, asoslangan mezonlarning yo'qligi*" kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Ya'ni, sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limning o'quv jarayoni xususiyatidan kelib chiqib, sessiya oralig'i vazifalarida faqat bitta tekshirish va baholash turidan: *talabaga faqat grafik vazifa chizdirish* bilan cheklanib qolish holati mavjud. To'g'ri, fanning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra texnik va grafik savodxonlik asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo sirtqi (maxsus sirtqi)da auditoriya dars soatlarining va professor-o'qituvchining talaba bilan jonli tarzda kam muloqat qilishi kamligi hamda o'zlashtirish asosan mustaqil tarzda amalga oshirilishini hisobga olsak bilimni tekshirish va baholashning boshqa usullaridan ham samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda talaba bilimini tekshirish va baholashning joriy, oraliq va yakuniy turlari mavjud. Joriy tekshirishning hammaga ma'lum turlari quyidagilardir: og'zaki so'rashning har xil shakllari, yozma uy vazifalarini tekshirish, yozma nazorat (mustaqil) topshiriqlari. Biroq, bunday an'anaviy shakllar bilan bir qatorda, turli perfokartalar yordamida tekshirish, kompyuter yordamida topshiriq bajarishini tekshirish ham qo'llanilyapti [3]. DTSda belgilangan minimum talabni to'laonli bajarish uchun bilimni tekshirish va baholashning boshqa turlaridan o'rinli foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi.

Chizma geometriya fanidan talaba bilimini og'zaki savol-javob o'tkazish, savollarga yozma ravishda javob olish, qisman yoki to'liq ijodiy izlanish talab qiladigan masalalar yechish, keyslar tuzish va ishlash, grafik vazifalar chizish, test savollariga javob berish orqali tekshirish va baholash ijobiy samara beradi deb hisoblaymiz. Ko'plab o'quv adabiyotlarini o'rganish, ularni tahlil qilish va zamon talabidan kelib chiqqan holda "*Chizma geometriya*" fani bo'yicha sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim talabalarining sessiya oralig'i vazifalari mazmunini kompleks yondashuv asosida takomillashtirishni quyidagi tartibda tuzishni ma'qul bo'ladi deb topdik va uni amaliyotda tajriba-sinovdan o'tkazmoqdamiz.

Bundan tashqari metodik tavsiyalarimizni umumlashtirgan holda sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limda chizma geometriya fanidan sessiya oralig'i vazifalarining didaktik ta'minotining ma'lum ma'noda tarkibiy tuzilmasi – modelini shakllantirdik. Ushbu modeldan boshqa fanlarni o'qitishda ham samarali foydalanish mumkin deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 9- avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3183-sonli qarori.
2. Valiyev A., Ashirboyev A., Tashimov N. Chizma geometriya fanidan talabalarining mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash me'zonlari. TDPU, 2018.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2 жилд, 2006. 396-6.

4. Rahmonov I., Qirg'izboyeva N., Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. Chizmachilik. –T.: “Voriz-nashriyot”, 2016. 303-b.
5. Mavlonova R., To'rayeva O., K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. –T.: “O'qituvchi”, 2010. 159-160-b.
6. Valiyev A.N., Rahmatova I.I. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda loyihalash masalalarining o'rni. –T.: //“Xalq ta'limi” 2018, № 6. 38-b.
7. Valiyev A.N., Amirqulov X.Q., Valiyeva B.N. Maxsus sirtqi bo'lim talabalarini o'qitishda darajali testlardan foydalanish. –T.: «Fizika va zamonaviy astronomiya: innovatsion o'qitishning yangi modellarini yaratish» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2019. 245-247-b.
8. 5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishining kunduzgi va maxsus sirtqi bo'limlar uchun 2018- yilda tasdiqlangan ishchi o'quv rejası va fan ishchi dasturlari.
9. <http://lex.uz/docs/3299721>

REZYUME

Ushbu maqolada sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim talabalarining chizma geometriya fanidan sessiya oraliq vazifalari mazmunini takomillashtirishga oid masalalar yoritilgan. Buning natijasida talabalarning bilimini tekshirish, baholash va uni mustahkamlash imkoniyatlarining o'sishi ko'rsatib otilgan.

PEZIOME

Данная статья посвящена вопросам по усовершенствованию содержания сессионных заданий промежуточного вопросов по начертательной геометрии для студентов заочного (специальной заочной) отделения. Как результат этого – повышение качества контроля и закрепления знаний студентов.

SUMMARY

This article is devoted to improving the content of the session tasks of the intermediate course on descriptive geometry for students of the correspondence course (special correspondence course) Department. As a result, the quality of control and consolidation of students' knowledge is improved.

BASLAWISH BILIMLENDIRIWDE ZAMANAGÓY PEDAGOGIKALÍO TEXNOLOGIYALARDÍ HÁM INNOVACIYALARDÍ OOLLANÍW MÁSELESÍ

G.Zarimbetova – *assistent oqıtwshı*

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tavanch so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, kognetivlik, evristika, kreativlik, pedagogik aksiologiya, pedagogik neologiya.

Ключевы слова: инновации, педагогические технологии, познание, эвристика, творчество, педагогическая аксиология, педагогическая неология.

Key words: innovations, pedagogical technologies, cognition, heuristics, creativity, pedagogical axiology, pedagogical neology.

Mektepte baslawish klaslarda zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardı, innovaciyalardı qollanıw máselesi hár qashanıdan da áhmıyetli tús alıp barmaqta. Birinshi Prezidentimizdiń iúdá orınlı uqtırıp ótkenindev. «zamanagóy baslawish bilimlendiriwdiń ózi neden ibarat bolıwı kerek. Bala 1-4 klasslarda qanday bilimge iye bolıwı lazım. Olardıń tárbıyası qanday bolıwı kerek. Usı máselege iwap tabıwımız zárúr» [1:13].

Mine usıǵan muwapıq, búgingi kúnde pedagogika tarawında dáwir talabı tiykarında oqıw processlerine innovaciyalardı endiriw islerinde pedagoglar bellesiwi tiyis.

Házirgi kúnde dúnya júzi pedagogikasında hár túrli pedagogikalıq texnologiyalar qollanıw atır. Máselen: kognitivlik, evristikalıq, dóretiwshilik (kreativlik) pedagogikalıq texnologiyalardı atap ótsek boladı.

Kognativlik pedagogikalıq texnologiya-oqıwshını adamzat jámiyeti tárepinen toplaǵan bilim, tájiriybeler menen qurallandıw hám olardı óziniń keleshektegi xızmetinde qollanıwǵa úyretiwdi maqset etip qoyadı.

Evristikalıq pedagogikalıq texnologiya-lekciya, seminar, laboratoriyalıq hám ámeliy jumıslardı mashqalalı jaǵdayda tereń izertlew jáne izlep tabıw arqalı oqıtwǵa baǵdarlangan boladı [2:16].

Kreativlik texnologiya-dóretiwshilik, oylaw hám uqıplılıqtı rawajlandırıw hám onı qalıplestiriwge qaratıladı. Oqıtw procesinde pánlerdi oqıtwda zamanagóy oqıtw metodi bolǵan interaktiv hám innovaciyalıq texnologiyalardıń ornı ullı. Dúnva júzi pedagogikalıq leksikası qatarınan «innovaciya» túsiniǵi álle qashan-aq orın alǵan. Bul túsiniq «jańa», «reforma» túsiniqlerin ańlatadı. Innovaciya sózi-bilim beriw barısında jańalıq kirgiziw (novoobrazovanie), jańalanıw degen mánisti de bildiredi. Keń mánide qaraǵanıımızda, tálim sistemasındaǵı hár qanday ózgerisler bul pedagogikalıq innovaciya bolıp esaplanadı. Dáslep bul túsiniqler social- ekonomikalıq hám texnologiyalıq processlerge baylanıslı qollanılatuǵın edi, keyin ala tálim sistemasındaǵı hár qanday jańalıqlarǵa baylanıslı qollanılatuǵın boldı. Pedagogikalıq jańalıqlardıń texnologiyası dep atalıwınıń sebebi de usında [3:21].

Innovaciya túsiniǵi islep shıǵarıw hám de mádeniyat tarawlarınan kirip kelgen túsiniq. 30-jıllarda AQShta «firma innovaciyalıq siyasatı», «innovaciyalıq process» atamaları payda bolıp, 60-70-jıllarda firmalar menen basqa da kárxanalarda ámelge asırılatuǵın jańalıqlardı empirikalıq tekseriw isleri ámelge asırılıp, usı dáwirlerden baslap innovaciya túsiniǵi ámeliyatqa kirip kelip, soń ol pedagogika páninde de qollanıla basladı. Mánisine qaray innovaciya múnásiybet yamasa processke jańalıq kiritiwdiń dinamikalıq sisteması bolıp esaplanadı. Ózliginen bul sistema sıpatında jańalıq kiritiw múnásiybet yamasa processtıń, birinshiden, logikalıq jaqtan ishi, ekinshiden kirgizilip atırǵan jańalıqtıń qanday da bir waqt aralıǵında izbe-iz rawajlanıwı hám de dógerek átirapqa kórsetetuǵın óz ara tásirin bildiredi.

«Ózbekstan milliy enciklopediyası»nda kórsetiliwi boyınsha tómendegi mánis hám mazmunǵa iye: «Innovaciya (angl «innovationas»-kirgizilgen jańalıq, oylap tabılǵan). 1) texnika hám texnologiya áwladların almasırwıdı támiyinlew ushın jumsalǵan qárejetler; 2) ilim-texnika jetiskenliklerin hám joǵarı tájiriybelerge tiykarlangan texnika, texnologiya, basqarıw hám miynetti shólkemlestiriw sıyaqlı tarawlardaǵı jańalıqlar, sonday-aq olardıń hár túrli tarawları hám jumıs sheńberinde qollanıwı [3:169].

R.N.Yusufbekova innovaciyalardı pedagogikalıq kóz-qarastan úyrenip shıǵıwǵa itibar qaratadı. Tiykarınan, pedagogikalıq innovaciya avtor tárepinen tálim-tárbıya procesinde aldın belgili bolmaǵan, hesh jerde jazılmaǵan jaǵday yamasa nátiyjege alıp barıwshı pedagogikalıq hádiyseniń ózgerip turıwı múmkin bolǵan mazmunı ekenligin atap ótedi. Rossiya alımları A.İ.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov hám t.b bolsa innovaciyalıq proces hám de onıń quramlı bólimlerin úyreniwge bar itibarın qaratqan. Usı orında olar innovaciyalıq processtıń shólkemlestiriliwine qaray tómendegi eki jantasıw bar ekenligin atap ótedi:

1. jańalıqtıń individual mikro dárejesin (bunda qanday da bir ideyanı ámelde qollanıw).

2. bólek kiritilgen jańalıqlardıń óz ara tásirin bildiriwshı mikro dáreje (bunda bólek kirgizilgen jańalıqlardıń óz-ara